

BOSHLANG'ICH SINIF TA'LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Munisaxon Odiljonova

*Farg'ona davlat universiteti filologiya
fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Aldashev Ilhomjon

*Farg'ona davlat universiteti axborot
texnologiyalari kasedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularning samarali usullari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, axborot, texnologiya, kompyuter, taqdimot, dars, samaradorlik, test, animatsion, multimedia, fanlar, didaktik, pedagogik, psixologik.*

Аннотация: *В данной статье говорится об использовании информационных технологий и их эффективных методах в начальном образовании.*

Ключевые слова: *начальное образование, информация, технологии, компьютер, презентация, урок, эффективность, тест, анимация, мультимедиа, науки, дидактические, педагогические, психологические.*

Abstract: *This article talks about the use of information technologies and their effective methods in primary education.*

Key words: *primary education, information, technology, computer, presentation, lesson, efficiency, test, animation, multimedia, sciences, didactic, pedagogical, psychological.*

KIRISH

Insonning ma'naviy tafakkurini yuksaltirish, estetik didini oshirish, atrofga tiyrak nigoh bilan boqishga o'rgatish ustoz degan sharafli nom bilan bog'liqdir. Farzandlarimizning dunyoqarashi keng, fikrlari teran, xushxulq, eng muhimi otanasiga, vataniga sadoqatli farzand bo'lib yetishishi biz o'qituvchilarning asosiy vazifamizdir.

Maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari, hukumat qarorlari o'z tasdig'ini topmoqda. Yildan yilga ta'lim sohasida juda kata o'zgarishlar ko'zga ko'rinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF 134-sonli farmoniga muvofiq:

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darslik va o'quv metodik majmualarini zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo

etish maqsadida, shuningdek, 2022 va 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qardini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi " Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF – 6079-son Farmoni asosida axborot texnologiyalarini qo'llash yuzasidan qator vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilish, turli xil axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi va ta'lim mazmunini boyitishga hissa qo'shadi, unga mantiqiy va izlanuvchanlik xususiyatini beradi, shuningdek, uni takomillashtirish yo'llari va vositalarini topish muammolarini hal qiladi.

Boshlang'ich sinflarda electron o'quv qo'llanmalarini tayyaorlab, foydalanish, unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materialini bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashil etishda o'qituvchi dastlab:

- Darsning maqsadi;
- Maqsadga erishish yo'llari;
- O'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- O'qitish metodlari;
- O'quv topshiriqlarining turlari;
- Muhokamalar uchun savollar;
- Munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- O'zaro aloqa usuli va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin.

Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- Ta'lim samaradorligini oshirish;
- Materialni assimilyatsiya qilish sifatini oshirish ;
- Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini qurish;

• Diqqat darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarga nisbatan differensial yondashuvni amalga oshirish;

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonini tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonida foydalanish, matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob- kitobli o'yinlar tashkil qilish, tabiatshunoslik fanida tabiatdagi hodisalar haqida sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin.

Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchilarning og'zaki nutqining rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshirishga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Elektron taqdimotlarni darsda namoyish etish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'quvchilarga katta yordam beradi. O'quv materiallarning elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'zga zamalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin.

NATIJA

Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga erishish, boshqaruv jarayonini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'lim tamoyillari, madaniyati o'zgaradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining maktab ta'limiga kiritilishidagi dolzarb muammolardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedogod xodimlar komponentligining yetarli emasligidir. Bugungi kun pedogoglari zamon bilan hamnafas ravishda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini mustaqil oshirib borishlari zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishi imkoniyati

va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilyotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta'lim tizimida ham o'z aksini topishi zarur.

O'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boshlaydi. O'qituvchi esa o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktab ta'limi tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq bir monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Ular hamkorlikda bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF 134-sonli Farmoni . www.Lex.uz
2. S. Y. Ergasheva . Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari maqolasi. Avgust. 2022.
3. Farg'ona viloyati Toshloq tumani 7-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi Ma'muraxon Axunovanning " E'tirofga molik bo'ldi" maqolasi. Toshloq tongi. 2018.
4. F. Xamrayeva . Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish maqolasi .Dekabr . 2022
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF- 6079-son Farmoni. www.Lex.uz
6. www.cyberleninka.ru